

TIZIMLI FIKRLASH KO'NIKMASI KOMPETENSIYA SIFATIDA

Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Samadovashohsanam71@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15015851>

Annotatsiya. Maqolada tizimli fikrlash ko'nikmasining kompetensiya sifatidagi ahamiyati tahlil etilgan. O'zbekistonda ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish, o'qituvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va baholash masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, tizimli fikrlash kompetensiyasining asosiy xususiyatlari, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va zamonaviy metodologik yondashuvlar bilan bog'liqligi yoritilgan. Maqolada kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tizimli fikrlash, kompetensiya, tayanch kompetensiyalar, pedagogik kompetensiya, ta'lim sifati, baholash mezonlari, innovatsion ta'lim.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan umuta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilab olindi. Zamonaviy o'qituvchining tayanch kompetensiyalarga egaligini yoki uni ta'limtarbiya jarayoniga qanchalar tadbiq etayotganligini aniqlash bizga dars sifatini va samaradorligini oshirish uchun muximdir. Biz bunda o'qituvchining oqsayotgan jihatlarini ya'ni o'rganishimiz natijasida sust bo'gan tayanch kompetensiyarni aniqla. Shu o'rinda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limga va uni baholash mezonlari bu – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir. Buni bartaraf etish uchun metodik yordam berishimiz zarurligini bildiradi. O'qituvchining tayanch kompetensiyalarga egaligini baholash odatda talim muassasi rahbariyati, metodistlar yoki boshqa pedagog tomonidan o'tkazilishi mumkin. Bu mavzuni ochib berishda bir qancha o'zbek olimlar izlanishlar olib borishga, hususan “Malaka va kompetensiyalarni baholash” Yusupova A.A. va Kamolova S.R. [2], “Pedagogik kompetentlik ta'lim jarayoni muhim omili sifatida” Rahimov Zokir ilmiy maqolasi [3], “Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida” Vaxobov M.M [4], Usarov Jabbor Eshbekovichning “Tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish (fizika fanini o'qitish misolida)” mavzusidagi dissertatsiyasi [5].

Shu o'rinda kompetensiya va tayanch kompetensiya atamasga to'xtalib ketsak. Kompetensiya – bu (lotincha, “erishaman, to'g'ri kelaman” ma'nolarini bildiradi) subyektning maqsadni qo'yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan o'quvchining avvaldan belgilangan ta'limiy tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar (me'yorlar)dan ham o'zib ketishidir [8]. Tayanch kompetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona ro'yxati yo'q.

Chunki har bir mamlakatning yoki regionning o'z an'analari, mentaliteti va o'ziga xos talablari bor. Kompetensiya – bu jamiyatning o'z fuqarolariga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning ro'yxati ma'lum bir mamlakatdagi yoki regiondagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo'lmaydi. Masalan Shveytsariyaning va Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta'lim statistikasi Milliy institutining "Tayanch kompetensiyalarni tanlash va aniqlash" nomli loyihasida tayanch kompetensiyalarni qat'iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo'lmagan.

Biz tizimli fikrlashni kompetentsiya deb bilamiz, chunki u kompetensiya belgilariga ega. U muayyan ish vazifalarini qo'yadi va aniq natijalarni nazarda tutadi, ushbu natijalar muayyan faoliyat va xulq-atvor turini hosil qiladi [12].

G.S. Altshullerning ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasida biz tizimli fikrlash tamoyillariga o'xshash tamoyillar asosida ishlaydigan texnologiyani ko'ramiz. Biroq, bu texnologiyani bilish foydalanuvchini muvaffaqiyatli ixtirochiga aylantirmaydi, balki TRIZ texnologiyasini amalda qo'llash orqali o'zida buning uchun zarur bo'lgan fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi [1]. Orit Ben-Tsvi Assarafning tadqiqotida o'quvchilarning tizimli fikrlashni talab qiladigan masalalarni yechish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi ikkita omil ajratib ko'rsatilgan. Birinchi omil - "o'quvchilarning individual bilish qobiliyatlari," ikkinchisi esa - "bilimlarni integratsiyalashda ishtirok etish darajasi" [14]. Bu shuni anglatadiki, tizimli fikrlash ko'nikmalari shaxsning individual kognitiv qobiliyatlari bilan cheklanmaydi, balki ularga asoslanadi va maxsus kognitiv hamda kasbiy kompetensiyalar bilan to'ldirilishi mumkin [4], [6]. Shunday qilib, tizimli fikrlash - shaxsiy fazilatlar va aniq ko'nikmalarning uyg'unligidir.

Tizimli tafakkurni qanday ko'nikma va sifatlar shakllantiradi?

Zamonaviy adabiyotlarda tizimli fikrlovchi qanday fazilat va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligi haqida ko'plab misollar keltirilgan [13]. Tizimli fikrlovchi - tizimli fikrlash texnikasidan foydalanuvchidir [9]. D. Kapra tizimlar bilan samarali ishlash uchun zarur bo'lgan 14 ta odatni ajratib ko'rsatgan [5]. B. Richmond tizimli fikrlashning yettita muhim ko'nikmasini tasvirlab bergan [13]. Senge tizimli tamoyillarni, tizimli fikrlash quriladigan qoidalarini ajratib ko'rsatgan [15]. Orit Ben-Tsvi Assaraf o'z tadqiqotida tizimli tafakkurning kognitiv tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadi [14]. Ushbu odatlar, ko'nikmalar, qoidalar va tarkibiy qismlar orasida biz guruhlarini ajratib ko'rsatdik, ularni, fikrimizcha, turli xil kompetensiyalarga kiritish mumkin [4], [12]. Ushbu barcha odatlar, ko'nikma va malakalar tizimli fikrlashning turli jihatlarini aks ettiradi va bir-biri bilan bog'liq bo'lib, tizimli fikrlash kompetensiyasining bir nechta darajalarini tashkil etuvchi turli elementlardir [12].

Xulosa:

Tizimli fikrlash bugungi kunda pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, o'qituvchilarning tayanch kompetensiyalari tarkibida muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada tizimli fikrlashning kompetensiya sifatidagi ahamiyati, uning shakllanish tamoyillari va ta'lim jarayonidagi roli yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tizimli fikrlash ko'nikmalari nafaqat shaxsning kognitiv qobiliyatlarini oshirishga, balki o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan baholash tizimlarini joriy etish o'qituvchilarning o'z kasbiy mahoratini oshirishiga hamda dars sifatini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, tizimli fikrlashning rivojlanishi pedagogik jarayonning

samaradorligini oshirib, ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini yaratadi. Shu sababli, tizimli fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik ko'rsatmalar va o'qituvchilar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Sh.M. Mirziyoev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent, 2017-yil.
2. Yusupova A.A va Kamolova S.R "Malaka va kompetensiyalarni baholash". Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti 2012. o'quv-qo'llanma.
3. Rahimov Zokir "Pedagogik kompetentlik ta'im jarayoni muhim omili sifatida" ilmiy maqolasi «Науки об образовании» CC BY 1025128.
4. Vaxobov M.M. "Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida". Tekst nauchnoy stati po spetsialnosti «Nauki ob obrazovanii» CC BY 2501336.
5. Usarov J.E. "Tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish (fizika fanini o'qitish misolida)" mavzusidagi dissertatsiyasi <https://uza.uz/uz/posts/usarov-zhabbor-eshbekovichning-talimva-tarbiya-azariyasi-v-28-11-2019>.
6. Э.Е. Феюшина «Как пройдет оценка компетенций учителя» <https://pedsovet.org/search/author/fedusina-elvira-evgenevna>.
7. К.В. Семенова "Программа оценки компетенций учителей: что это такое и сроки проведения" <https://multiurok.ru/blog/proghramma-otsienki-kompietientsiiuchitelielie-cto-eto-takoie-i-sroki-proviedieniia.html>.
8. Kaldibekova, A. S., & Norboyev, F. C. (2021). Pedagogik innovatsion faoliyatda psixologik to'siqlar muammosi. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 611-615.
9. NORBOYEV, F. (2024). *Innovatsiya manbalari: aktyor-tarmoq nazariyasi*.